

MEHNAT RESURSLARI SHAKLLANISHINING SIFATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

G'.F.Qo'chqorov - Qarshi davlat universiteti professori.
O'zbekiston.

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada milliy iqtisodiyot rivojlanishining innovatsion shakliga o'tish sharoitida mehnat resurslarining sifat ko'rsatkichlariga bo'lgan talab oshadi. Mehnat resurslarining asosini tashkil etuvchi mehnatga layoqatli aholiga xos bo'lgan xususiyat ularning takror barpo bo'lishining barcha bosqichlarida o'z-o'zini rivojlantirib, takomillashtirib borishidir. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida esa mehnat resurslari sifatining iqtisodiy qiymati oshib borishi yoritilgan.*

***Kalit sozlar:** Mehnat resurslari, rivojlantirish, shakillantirish, innovatsiya, ta'lim, sog'likni - saqlash, bandlik, samarali foydalanish.*

НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ФОРМИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ РЕСУРСОВ

Г.Ф.Кучкаров - профессор Каршинского государственного университета.
Узбекистан.

***Аннотация:** В данной статье говорится, что в условиях перехода к инновационной форме развития национальной экономики повышается спрос на качественные показатели трудовых ресурсов. Характерной особенностью трудоспособного населения, составляющего основу трудовых ресурсов, является саморазвитие и самосовершенствование на всех этапах их воспроизводства. В условиях инновационной экономики освещается повышение экономической ценности качества трудовых ресурсов.*

***Ключевые слова:** Трудовые ресурсы, развитие, формирование, инновации, образование, здравоохранение, занятость, эффективное использование.*

DIRECTIONS FOR ENHANCING THE QUALITY OF LABOR RESOURCE DEVELOPMENT

G.F. Kuchkarov - Professor of Karshi State University.

Abstract: *In this article, the demand for quality indicators of labor resources increases in the context of the transition to an innovative form of national economic development. A characteristic feature of the working-age population, which forms the basis of labor resources, is their self-development and improvement at all stages of reproduction. In the context of an innovative economy, the increase in the economic value of the quality of labor resources is highlighted.*

Keywords: *Labor resources, development, formation, innovation, education, healthcare, employment, effective use.*

Iqtisodiyot rivojlanishining innovatsion shakliga o'tish sharoitida mehnat resurslarining sifat ko'rsatkichlariga bo'lgan talab oshadi. Mehnat resurslarining asosini tashkil etuvchi mehnatga layoqatli aholiga xos bo'lgan xususiyat ularning takror barpo bo'lishining barcha bosqichlarida o'z-o'zini rivojlantirib, takomillashtirib borishidir. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida esa mehnat resurslari sifatining iqtisodiy qiymati oshib boradi. Ishlab chiqarish jarayonining doimiy yangilanishi va takrorlanishining asosiy sharti nafaqat ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan ishlab chiqarish vositalarini tiklash, balki foydalanilgan ishchi kuchini ham tiklash va takror barpo bo'lishini taqozo etadi. Mehnat resurslarining takror barpo bo'lish jarayoni ularning miqdor ko'rsatkichlari bilan bir qatorda sifat ko'rsatkichlarining ham doimiy ravishda yangilanib turish jarayonini nazarda tutadi.

- Mehnat resurslarining sifatini ifodalovchi ko'rsatkichlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:
- Mehnat resurslarining alohida jihatlarini baholovchi ko'rsatkichlar (ta'lim darajasi, salomatlik darajasi, aholining daromad ko'rsatkichlari);
- Mehnat resurslarini umumlashtirgan holda baholovchi integral ko'rsatkichlar (BMT tomonidan ishlab chiqilgan "Inson taraqqiyoti indeksi", Jahon iqtisodiy forumi tomonidan hisoblanadigan "Inson kapitali indeksi").

Ta'lim bilan birga aholining salomatligi ham mehnat resurslarining sifatini shakllantiruvchi omildir. Salomatlik ta'lim kabi mehnat resurslarining taklifini belgilab berish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omillar qatoridan joy olgan (G. Becker (1964), D.Weil (2014)).

Salomatlik inson qobiliyatlari va bilimini rivojlantirish va yuzaga chiqarishda muhim omil sifatida yuzaga chiqadi. Inson egalik qilgan bilim, malaka va qobiliyatlari yig'indisi uning mehnat unumdorligini va shuningdek, uning mehnatiga bo'lgan talabni belgilab beradi. Inson salomatligining yomonlashuvi uning qobiliyatlari, bilim va malakasini namoyon qilishiga to'sqinlik qilishi mumkin, yaxshi salomatlik esa iqtisodiy faollikni oshirib, iqtisodiy o'sishga o'z hissasini qo'shish imkonini beradi. Shu bilan birga salomatlikning yomonlashuvi ishchining ishlagan soat xajmini tushirib, mehnat unumdorligini pasaytiradi va o'z navbatida qo'shimcha natijaning yo'qotilishiga olib keladi..

Umuman olganda, fikrimizcha mehnat resurslarining sifati haqida gap borganda inson kapitali tushunchasi orqali tahlil qilish mantiqan to'g'ri bo'ladi. Chunki "mehnat resurslari" va "inson kapitali" tushunchalarining mohiyatlari tadqiq etish natijasida "inson kapitali" "mehnat resurslari"ning aynan sifatini ifodalovchi iqtisodiy kategoriya sifatida amal qilishi ma'lum bo'lgan.

«Inson kapitali» nazariyasining asoschilari insonga yo'naltirilgan investitsiyaning asosiy shakllari sifatida ta'lim, ish joyida malaka oshirish (on – the job training), tibbiy xizmat, migratsiya, narx va daromad haqida ma'lumot izlash, bolalarning tug'ilishi va ularning tarbiyasi kabilarni ko'rsatishadi.

–ta'lim va kasbga tayyorgarlik insonning bilim darajasini oshiradi, ya'ni inson kapitali hajmini oshiradi;

– sog'liqni saqlash kasallik va o'limni qisqartirib insonning xizmat qilish muddatini oshiradi;

–migratsiya va ma'lumot izlash, ishchi kuchining mehnatga yuqoriroq to'lanadigan, ya'ni inson kapitali qiymati yuqoriroq bo'lgan joylarga va tarmoqlarga harakatlanishiga sabab bo'ladi;

–bolalarning tug‘ilishi va tarbiyasi mehnat resurslarining kelajak avlodda «takror barpo bo‘lishiga» sabab bo‘ladi.

Mamlakatda mavjud mehnat resurslarini shakllantirish va rivojlantirish nuqtai nazaridan ta’lim sohasiga xarajatlar bilan bir qatorda sog‘liqni saqlash xarajatlarini bir xil darajada shakllantirish tavsiya etiladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining tavsiyalariga ko‘ra mamlakatda millat salomatligini yaxshilash va saqlash maqsadida sog‘liqni saqlash tizimini davlat tomonidan moliyalashtirilishi YAIMning 5-6%dan kam bo‘lmagan miqdorda o‘rnatilishi zarur. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlashga ajratiladigan umumiy xarajatlar miqdori 4%dan oshiq bo‘lib, sog‘liqni saqlash tizimining davlat tomonidan yetarli darajada moliyalashtirilmasligi aholining individual xarajatlari tomonidan qoplanadi.

1-jadval

O‘zbekistonning inson taraqqiyoti indeksi bo‘yicha o‘zgarish tendensiyalari¹

Ko‘rsatkich	1998	2000	2003	2004	2010	2013	2014	2025
ITI ko‘rsatkichi	0.686	0.727	0,694	0,696	0.617	0.661	0.69	0.74
ITI reytingi bo‘yicha o‘rni	106	95	111	113	102	116	114	107
Tug‘ilganda kutilayotgan umr davomiyligi		69	66,5	66,6	68,2	68.2	68,4	75,1
Ta’limning o‘rtacha davomiyligi*	-	-	-	-	10,0	10.0	10,9	12,2
Kutilayotgan ta’lim davomiyligi*	-	-	-	-	11,5	11,5	11,5	12
Jon boshiga YAMD (AQSH doll. SOP)		2441**	1744**	1869*	3085	5227	5567	5748
Reytingda ishtirok etgan umumiy davlatlar soni		173	177	177	182	187	188	188

¹ БМТ нинг “Human Development Report” маърузалари асосида муаллиф томонидан тўпланган.

Доклад о развитии человека 2009. Преодоление барьеров: человеческая мобильность и развитие, Доклад о развитии человека 2010, 20-е юбилейное издание. Реальное богатство народов: пути к развитию человека. «Весь мир», 2010. , Human Development Report 2011 Sustainability and Equity: A Better Future for All., Доклад о человеческом развитии 2013. Возвышение Юга: человеческий прогресс в многообразном мире. / Пер. с англ.; ПРООН. – М., Издательство «Весь Мир», 2013. Human Development Report 2015 Work for Human Development., Доклад о человеческом развитии 2016. Человеческое развитие для всех и каждого / Пер. с англ.; ПРООН. – М., Издательство «Весь Мир», 2016. <http://hdr.undp.org/sites/>

* - 2010 yilda Inson taraqqiyoti indeksini hisoblash uslubiyotiga o'zgartirish kiritilgan. Ungacha ta'lim indeksi aholining savodxonlik darajasi va oliy ta'lim bilan qamrov ko'rsatkichlari asosida hisoblangan.

* - 2010 yilgacha aholining turmush darajasi indeksi aholi jon boshiga YAIM orqali hisoblangan.

Ishlab chiqilgan inson kapitali indeksi uzoq muddatli va keng qamrovli yondashuvni ifodalab, mamlakatda avval amalga oshirilgan tadbirlar natijasi sifatida aks etuvchi o'lchovlar orqali mamlakat inson kapitali holatini aniqlash bilan birga, kelajakda ishchi kuchi shaklini oluvchi bugungi yosh avlodga ta'sir ko'rsatuvchi strategik qarorlar natijasi sifatida ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu ma'ruzada taqdim etilgan inson kapitalini baholash uslubi shu paytgacha qo'llanilgan uslubiyotlarga qaraganda kengroq ko'rsatkichlar ko'lamini qamrab olgan bo'lib, to'rt yo'nalish bo'yicha: ta'lim va kasbiy tayyorgarlik, sog'liqni saqlash va salomatlik, mehnat resurslari va bandlik, shuningdek, so'nggisi yuqoridagilarning yuqori qiymatga aylanishiga asos yaratuvchi va inson kapitalining samarali amal qilishini ta'minlovchi «qulay muhit» ko'rsatkichlari bo'yicha baholangan. Indeks jami 51 ta ko'rsatkich bo'yicha hisoblanib, ularning 12 tasi ta'lim yo'nalishi, 14 tasi salomatlik, 16 tasi ishchi kuchi va bandlik va 9 tasi institutsional muhit yo'nalishi doirasida belgilangan. Ko'rsatkichlar Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, YUNESKO va Xalqaro mehnat tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan ommaviy ochiq obyektiv statistik ma'lumotlar shuningdek, ularga qo'shimcha ravishda asosan sifat ko'rsatkichlarni ifodalovchi jahon iqtisodiy forumining jamoat fikrini o'rganish so'rovlari natijalari va Gallup ning salomatlik borasidagi so'rov natijalari asosida shakllantirilgan.

Ta'lim yo'nalishidagi ko'rsatkichlar ta'limning barcha bosqichlarining miqdor va sifat jihatlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan.

Sog'liq va salomatlik yo'nalishidagi ko'rsatkichlar ijtimoiy-madaniy, jo'g'rofiy, atrof-muhit va salomatlikning fiziologik omillarining inson kapitalining rivojlanishiga qanchalik ta'sir ko'rsatishini ifodalovchi o'lchovlarni o'z ichiga

olgan. Hayot yoʻnalishi yondashuviga asoslangan boʻlib, kelajak ishchi kuchi salomatligiga asos boʻluvchi ilk rivojlanish koʻrsatkichlari bilan birga joriy ishchi kuchining qobiliyati va unumdorligiga taʼsir koʻrsatuvchi yuqumli va yuqumsiz kasalliklar bilan kasallanish koʻrsatkichlarini oʻz ichiga oladi.

Uchinchi yoʻnalish mehnat resurslari va bandlik doirasidagi koʻrsatkichlarni qamrab olgan.

Yuqoridagi uchta yoʻnalishdagi koʻrsatkichlar bilan bir qatorda indeksni hisoblashda mamlakatda mavjud inson kapitali oʻzini toʻliq namoyon eta olishi uchun shart-sharoitlarning mavjudligini ifodalovchi “Institutsional muhit” yoʻnalishidagi koʻrsatkichlar kiritildi.

Oʻzbekiston xalqaro miqyosda tan olingan yuqori taʼlim koʻrsatkichlarga egaligi, shuningdek, sogʻliqni saqlash sohasidagi islohotlar natijasida salomatlik bilan bogʻliq koʻrsatkichlarning yaxshilanishi mamlakatning reytingda munosib oʻrin egallashiga asos boʻladi.

Mehnat resurslarining sifatiga taʼsir koʻrsatuvchi va uning oshishiga xizmat qiluvchi omillarni tadqiq etish natijasida mehnat resurslarining sifatini oshirishning quyidagi yoʻnalishlari aniqlandi:

- taʼlim tizimining barcha bosqichlarida taʼlim sifatini oshirish mezonlarini ishlab chiqish;
- malaka oshirish, ishga muhtoj kishilarni kasbga tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish;
- sogʻliqni saqlash tizimining aholining barcha tabaqalari uchun imkonliligini va sifatini oshirish;
- sogʻliqni saqlash tizimining muqobil shakllarini rivojlantirish va tibbiy sugʻurta tizimini keng joriy etish;
- aholi orasida sogʻlom turmush tarzi olib borish boʻyicha tarqibot va tashviqot ishlarini olib borish;
- mehnat qilish sharoitlarini yaxshilash, shuningdek mehnat faoliyati jarayonida jarohatlanish holatlarini qisqartirish;

- kishilarning ijtimoiy-maishiy turmushini yaxshilash, jumladan turar joylarni obodonlashtirish va ularning moddiy ta'minlanganlik darajasini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, mehnat resurslari shakllanishi sifatini oshirish iqtisodiy o'sishning muhim omili bo'lib, u inson kapitaliga investitsiyalar samaradorligini bevosita belgilaydi. Ta'lim va kasbiy tayyorgarlikning mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashuvi, sog'liqni saqlash va migratsiya siyosatining muvofiqlashtirilishi hamda bandlik institutlarining rivojlanishi mehnat unumdorligini oshirib, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. Natijada, iqtisodiyotning raqobatbardoshligi kuchayadi, yuqori qo'shilgan qiymat yaratiladi va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratiladi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son "O'ZBEKISTON — 2030" STRATEGIYASI TO'G'RISIDA
2. A.C.Солиев ва бошқалар Иқтисодий ва ижтимоий география. Олий ўқув юртлари учун дарслик. Наманган 2024 йил //MASHRAB 406 бет
3. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат бозори назариясига янгича ёндашувлар // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 1, сентябрь, 2011. –Б.46-52. Iqtisodiyot.uz
4. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти (назария ва амалиёт). Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Т.: Меҳнат, 2004.-203-214-б.
5. Аҳмедов Д.Қ. ва бошқалар. Макроиктисодиёт. -Т.: 2004. –147 б.
6. Владимирова Л.П. Экономика труда. Учебное пособие. – М.: Издательский Дом «Дашков и К», 2000. -стр. 244.
7. Ўлмасов А., Ваҳобов А. Иқтисодиёт назарияси. – Т.: Шарқ, 2006. –36 б
8. <https://stat.uz/uploads/docs/>
9. Экономика труда (социально-трудовые отношения) // Под ред. Н.А.Волгина, Ю. Г. Одегова. – М.: Экзамен, 2008. С.145-147.